

Kafedra mudiri:

t.f.f.d., PhD Normatov Sherbek Baxtiyorovich

Qabul vaqtি: Dushanba-Chorshanba (14:00-15:00)

Telefon: (+99871) 238-65-78

E-mail: sh.normatov@tuit.uz

Kafedra qanday mutaxassislarni tayyorlaydi

Axborot-kutubxona tizimlari kafedrasi davlat va universitet kutubxonaları, maxsus kolleksiyalar fondi, notijorat tashkilotlari, konsalting firmalari, ma'lumot yig'ish va yetkazib berish agentliklari, axborot markazlari va boshqa davlat organlari uchun axborotlar fondi, elektron kutubxonalar va repozitoriyalar yaratish va boshqarish, ma'lumotlarni qidirish va tahlil qilish sohalarida bakalavr, magistratura va doktorantura bosqichida kadrlar tayyorlaydi.

Kafedra tarixi

Axborot-kutubxona tizimlari kafedrasi 2012-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida tashkil etilgan. Kafedrada o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarning shakllanishi va rivojlanishida t.f.d. prof. M.A. Rahmatullayev, p.f.n., professor B.I. Ganiyeva, t.f.n. dotsent U.F. Karimov, p.f.n. dotsent M.X. Maxmudov, A.Alimova, X.Mamatraimova, t.f.n. dotsent A.M. Xundibayev, katta o'qituvchi S.R. Arakelovlar salmoqli hissa qo'shdilar. Kafedrada 2012-2023-yillarda professor B.I.Ganiyeva rahbarlik qilgan bo'lsa, hozirda PhD Sh.B.Normatov kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmiqda.

Bakalavriat ta'lif yo'nalishlari:

60320400

Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) ta'lif yo'nalishi,

Magistratura mutaxassisliklari:

70320402

Elektron kutubxona va arxivlar magistratura mutaxassisligi

Doktorantura ixtisosliklari:

05.01.09

Hujjatshunoslik. Arxivshunoslik. Kutubxonashunoslik" doktorantura ixtisosligi

Kafedrada o'qitiladigan fanlar

Bakalavriat:

- Axborot ma'lumot xizmatlari
- Kutubxonashunoslik
- Kataloglashtirish va klasifikatsiyalash
- Maktab kutubxonalar

- Koleksiyalarni yaratish
- Metama'lumotlar nazariya va amaliyotda
- Kutubxonalar uchun ma'lumotlar bazasini loyihalash
- Kutubxonani boshqarish
- Axborot va kutubxona fanlarida ilmiy izlanishlar usullari
- Umumiylar bibliografiya
- Raqamli axborot xizmati
- Axborotlarning analitik mahsuloti va xizmati
- Axborot qidiruv tizimlari
- Avtomatlashgan kutubxonani boshqarish

Magistratura mutaxasisligi:

- Arxiv ishi
- Jahon axborot resurslari

Mutaxasslik tanlov fanlari:

- Arxiv ishi
- Jahon axborot resurslari
- Axborot kutubxona xizmati nazariyasi va uslubiyoti
- Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik tadqiqotlarini tashkil etish metodikasi
- Axborot kutubxona va arxiv tizimlarini loyihalashtirish

KAFEDRANING PROFESSOR-O'QITUVCHILAR TARKIBI:

- Normatov Sh.B., kafedra mudiri, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Ganiyeva B.I., professor, pedagogika fanlari nomzodi;
- Raxmatullayev M.A., professor, texnika fanlari doktori;
- Raximova Sh.A., sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
- Arakelov S.R., katta o'qituvchi;
- Ziyodullayeva G.E., katta o'qituvchi;
- Anufriyeva Y.G., assistent;
- Abduzairov Sh. N, assistent;
- Sultonova Z. assistent;

Kafedraning yutuqlari:

- Kafedra professorlari B.Ganiyeva va M.Raxmatullayev "Axborot-kutubxona a'lchisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishgan.
- Kafedra professorlari B.Ganiyeva va Raxmatullayev Elsevier kompaniyasining Scopus Award - 2018 mukofoti doirasida O'zbekistonning eng yaxshi olimlari safidan o'rinn olishgan.
- Har yili kafedra tomonidan "Ilmiy axborotlardan foydalanish va nashr faolligi" Milliy ilmiy ta'limiy forumi tashkil etiladi.
- Kafedra professori M.Raxmatullayev muallifligida yozilgan "ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ СИСТЕМ" darsligi Moskvaning ИНФРА-М nashriyotida chop etildi va MDH davlatlari o'ttasida o'tkazilgan "Eng yaxshi darslik" tanlovida 2-o'rinni qo'lga kiritdi.
- Kafedra professor-o'qituvchilari Marat Raxmatullayev, Sergey Arakelov va Sherbek Normatovlar tomonidan taqdim etilgan Educational laboratory "Digital Library" (simulator) based on the competency-based approach and the Case-study method to improve the training of qualified information and library specialists nomli loyihasi 2023-yil dekabr oyida UNESCO-ICHEI tomonidan e'lon qilingan Higher Education Digitalization Pioneer Case Award tanlovida xalqaro ekspertlar tomonidan g'olib deb topildi.

KAFEDRANING ILMYI-TADQIQOT ISHLARI:

- O'zbekiston Respublikasi FA kutubxonasi bilan hamkorlikda PZ-20170929262-raqamli "Jamiyatimizda kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatini oshirishning pedagogik va psixologik usullarini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyiha (2018-20 yy.);
- Gyote instituti bilan hamkorlikdagi "Islohotlar davrida O'zbekiston kutubxonachilarining malakasini oshirishga ko'maklashish" loyihasi (2012 y.);
- Yevropa Ittifoqining TEMPUS (145021-Tempus-UK-JPCR) dasturi doirasida "New master program for Library information science" Axborot kutubxona sohasida yangi magistrlik dasturlari loyihasi (2009-13 yy.);
- eIFL (electronic information for libraries), Xalqaro kutubxona konsorsiumi IP (EIFL-IP: copyright and libraries) "Elektron nashrlarga oid mualliflik huquqlari" mavzusidagi loyihasi (2014 y.);
- O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Elektron kutubxonalar va korporativ axborot tarmoqlari" o'quv laboratoriyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy loyihasi (2016 y.);
- Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi "TechReh Technology in Rehabilitation" (Project number: 561621-EPP-1-2015-1-IT-EPPKA2-CBHE-JP)
- xalqaro loyihasi (2015-17 yy.);
- Yevropa Ittifoqining Erasmus+ №2018-1-IT02-KA107-047213 Credit mobility xalqaro almashinuv loyihasi (2018-19 y.);
- AQSh departamentining "International visitor leadership program" (IVLP) loyihasi (2018 y.)
- Hozirda kafedra qoshida UNESCO hamkorligida qiymati 80 000 AQSH dolloriga teng bo'lgan SMART CLASS ochish bo'yicha xalqaro loyihasi bajarilmoqda.

Kafedraning ilmiy va amaliy hamkorlari:

- Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi;
- Toshkentdagi Yevropa Ittifoqi Erasmus+ milliy ofisi;
- Respublika axborot-kutubxona markazi;
- Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasi
- Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markazi
- Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi

Kafedra ilmiy seminari

Kafedrada "Fan va ta'limga oid ma'lumotlarni intellektual qidirish" илмий семинари фаолият юритади. Seminarning maqsadi fan va ta'limga oid ma'lumotlarni qidirishni intellektuallashtirish sohasida nazariy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, turli sohalarda, shu jumladan axborot-kutubxona, arxiv, ta'lim sohalarida sun'iy intellekt tizimlarini yaratish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishdan iborat.

Seminarda Axborot-kutubxona tizimlari va boshqa kafedralar hamda tashkilotlarning doktorantlari va tadqiqotchilari ishtirokida tegishli mavzular bo'yicha quyidagilar muhokama qilinadi:

- Dissertatsiyalar, boblar, paragraflar va ilmiy-amaliy natijalar;
- Ilmiy maqolalar;
- Ilmiy va amaliy loyihalar.

Seminar raisi: Professor Raxmatullayev M.A.